

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7830012>

Ikromova Yulduzoy Erkin qizi

JDPU, o'qituvchi.,

Xushvaqova Zuhra Sa'dulla qizi

2 – bosqich talabasi.

Annotatsiya. O'simlik dunyosi inson sog'lig'ini saqlovchi asosiy vosita sifatida unga xizmat qilib kelmoqda. Odamlar ovqat uchun o'simlik mevasi, ildizi, bargi va gullarini yig'ib yurganlarida, ba'zilarini og'rini qoldiruvchi, oqib turgan qonni to'xtatuvchi, yaralarni davolovchi ta'sirlari borligini, ya'ni dorivor ekanligini sezganlar va ulardan keyinchalik shifobaxsh vosita sifatida foydalanganlar. Ularning ko'pchilagini bundan uch yarim ming yil avval Misr shifokorlari qo'llaganlar va shu vaqtgacha bu o'simliklar o'zining dorivorlik ahamiyatini yo'qotmagan.¹ Shunday xususiyatlarga ega o'simliklardan yana biri bu arpabodiyon o'simligidir.

Kalit so'zlar. Arpabodiyon, o'simlik, shifobaxsh, soyabon, likyor, yel, haydovchi, dorivor, birö yillik.

Insoniyat qadimdan kasallikni davolash va uning oldini olishda tabiatning in'omi – o'simlik dunyosidan foydalanim kelgan. Tabiat insonga hamma boyligini bergen. Inson o'zi uchun kerak bo'lган – havo, suv, oziq-ovqat, kiyim-kechak, turli sohalar uchun zarur bo'lган ashyolarni tabiatdan oladi.

Yashil o'simliklar o'z organizmidagi doim ro'y beradigan fotosintez jarayoni tufayli atmosferani kislorod bilan boyitadi va havoni ortiqcha karbonat angidriddan tozalaydi.

Xuddi shunday dorivorlik va ko`plab noyob xususiyatlarga ega o'simliklardan yana biri arpabodyon o'simligidir.

Arpabodiyon (Anisum vulgare Gaertn.) Selderdoshlar (soyabonguldoshlar) – Apiaceae oilasiga mansub bir yillik o't o'simlik hisoblanadi. Poyasi tik o'sadi, ko'p qirrali, yuqori qismi shoxlangan, bo'yi 30-60 sm ga etadi. Ildiz oldi va poyasining pastki qismidagi barglari uzun bandli, yumaloq, buyraksimon, tuxumsimon yoki bo'lakli va yirik tishsimon qirrali, o'rtaligi qismidagilari - uzun bandli, uch bo'lakli (bo'laklari rombsimon), arrasimon qirrali, yuqori qismidagilari qinli, 2-6 bo'lakka patsimon qirqilgan yoki nashtarsimon bo'ladi. Barglari poyaga ketma-ket o'rnashgan. Mayda, ko'rimsiz, oq rangli gullari murakkab soyabonga to'plangan mevasi qo'shaloq pista.¹ 1000 dona urag'ning vazni 3-6g mevasi tarkibida 1,2 - 3,2 % efir moyi, 8 - 28.4 % yog' va 19 % gacha oqsil moddalar mavjud tibbiyotda mevasi va efir moyi ishlatiladi.

¹"Asoratsiz dori – darmon" O.P.Pratov, M.N.Maxsumov. "O'qituvchi" – nashryoti 2006.

Arpabodyon Qadimdan ma'lum bo'lgan o'simlikdir. Bu o'simlikni qadimgi Yunonistonliklar uylarida yovuz ruhlarni quvadi deb saqlash odatlari bor edi. U uyda osoyishtalik, tinchlik va qulaylikni ta'minlashga qodir deb ishonishgan bu xususiyat unga bekorga berilmagan. U nafaqat har qanday oshpazlik idishini to'ldiribgina qolmasdan uy uchun antiseptik, mikroblar, bakteriyalar va xavfli viruslani shavqatsiz yo'q qilgan.³ Arpabodyon mevasi preparatlari va moyi tibbiyotda bronxit, traxeid, laringit kasalligida balg'am ko'chiruvchi, ichak faoliyatini yaxshilovchi, yel haydovchi vosita sifatida ishlataladi. Arpabodiyan urug'idan olingan moy sovin pishirishda keng qo'llaniladi mevasi va moyi oziq-ovqat sanoatida, efir moyi esa atir-upa, likyor-aroq sanoatida ishlataladi.²

O'stirish texnologiyasi. Arpabodiyon uchun haydar ekiladigan va kuzgi ekin maydonlari to'g'ri keladi. Yerga kech kuzda haydashdan oldinroq 25-30 sm chuqurlikda yer gektariga 30 t go'ng va 40 kg fosfor o'g'itlari solinadi. Urug' 1-2 sm chuqurlikka ekiladi. Gektariga 8-10 kg urug' sarflanadi. Bir tekis ekilishi uchun urug' qipiqlqa, qum yoki chirindiga aralashtiriladi va qator oralari 70 sm dan qilib ekiladi. Bahorda ekilganida urug' 6-8 kunda unib chiqadi. Kuz va kech kuzgi ekishda urug'laming bir qismi ayozli kunlar boshlanguniga qadar unib chiqadi va maysalari to'pgulbarg tarzida qishlaydi. Saqlab qolning ekinlardagi maysalaming bir qismi to'pgulbarg holatida bo'ladi.

Arpabodiyonning parvarishi, o'toq qilish, yaganalash, begona o'tlarni yo'qotish va yerni yumshatishdan iborat. O'simlik to'plarining zichligi bir metrda 10-15 donadan bo'lishi kerak. Mavsum davomida 6-7 marta sug'oriladi (may-1, iyun-avgust 2 tadan, sentabr-1). Tuproqning mexanik tarkibini hisobga olgan holda gektariga 500-600 kub metr suv sarflanadi. Birinchi yili vegetatsiya davomida arpabodiyan o'simligi gektar hisobiga 90-100 kg azot, 70-80 kg fosfor va 50-60 kg kaliy o'g'iti bilan oziqlantirish tavsiya qilinadi. Ikkinchi va undan keyingi yillarda arpabodiyan ekinzorida poya o'sib, gullay boshlashi davrida har gektariga 50 kg dan azot o'g'iti bilan o'g'itlanadi. Birinchi yili 2-3 marta kultivatsiya qilinadi, keyingi yillari shox-shabbalari birikib ketguniga qadar kultivatsiya qilinib, ayni vaqtida azot o'g'itlari bilan o'g'itlanadi. Har gektar yerdan o'rtacha 1,5 tonna saralangan urug' yig'ishtirib olish mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1.E.T.Berdiyev, M.X.Hakimova, G.B.Maxmudova. O'rmon dorivor o'simliklari "Sano – standart" nashriyoti – Toshkent – 2016 – 110 b.

2.O'. Ahmedov, A. Ergashev, A. Abzalov, M. Yulchiyeva, S. Azimboyev. Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi. Toshkent – " NIF MSh" – 2020 – 21 b.

3.<https://uz.wikipedia.org/wiki/Arpabodiyan>

PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

6 – TOM 4 – SON / 2023 - YIL / 15 - APREL

**4.Sulaymonov I.J., Ergashev D.T. Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi
fanidan amaliy mashg'ulotlar. Namangan-2020 - 106; 107 b.**